

KALIFORNIYA VA MAHALLIY ZOTLI QUYONLARNI CHATISHTIRISHDAN OLINGAN DURAGAY QUYONLARNING O'SISH VA RIVOJLANISHI

Yangiboyev A.E., Yusupov O.Y.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali q.x.f.n, dotsenti, (PhD) doktoranti.

Tursunov X.Sh.

Quyunchilik seleksiyasi va genetikasi laboranti, Quyunchilik seleksiyasi va genetikasi katta ilmiy xodim, q.x.f.n.

Annotatsiya: Maqolada tajribadagi Kaliforniya va mahalliy zotlarni chatishtirishdan olingan duragay quyonlarning o'sish dinamikasi aks etgan bo'lib 44 bosh urg'ochi quyonlarning o'rtacha yoshi 210 kunlik yoshiga kelib tajribadagi quyonlarning o'rtacha vazni $4173,3 \pm 17,1$ g-ni tashkil qilib 180 kunlik yoshiga nisbatan 239,7 g-ga ortiqcha bo'ldi ($R > 0,99$).

Kalit so'zlar: ona quyon, duragay quyonlar, go'sht, tuxum, baliq, to'laqonli, qo'y, mol, cho'chqa, quyon bolalari, o'sish va rivojlanish, tana o'lchamlari.

Abstract: The article describes the growth dynamics of hybrid rabbits obtained from the crossing of Californian and local breeds. The average age of 44 female rabbits was 210 days. The average weight of the experimental rabbits was 4173.3 ± 17.1 g. compared to the age of 180 days, it was 239.7 g more ($R > 0.99$).

Keywords: mother rabbit, hybrid rabbits, meat, eggs, fish, full-term, sheep, cattle, pig, baby rabbits, growth and development, body size.

Kirish

Chorvachilikda go'sht, tuxum, baliq mahsulotlari bilan bir qatorda quyon go'shti yetishtirish shu davirga kelib alohida ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Quyon go'shti inson organizimida tez hazm bo'ladi. U og'ir, jismoniy mehnat bilan shug'illanuvchilar, uchuvchi, g'avvos, sportchi, zararli ishlab chiqarishda ishlovchilar, ifloslangan hududlarda yashovchi aholi uchun ham foydali. Quyon go'shti, ayniqsa to'laqonli oqsil moddasiga ehtiyoji bo'lgan-maktabgacha yoshdagi bolalar, o'smirlar, emizikli ayollar, keksalar uchun ham juda foydali.

Onalik sifati va uyadagi quyonlarning yashovchanligi quyonlarni seleksiyalashda muhim belgi hisoblanadi. Quyonlarda onalik sifatining namoyon bo'lishini o'rganish nafaqat shaxsiy tomorqa quyunchilik xo'jaliklari uchun, balki sanoat miqyosidagi quyunchilik tarmog'i uchun ham muhim sanaladi. Quyon bolalari o'n kunlik yoshigacha ko'zi yumiq holda bo'ladi. 19-20 kunligidan uyadan chiqib, mustaqil ravishda ozuqa granularlarini yeya boshlaydi. Agar ona quyon bolalarini yetarlicha emizmasa, uya juda issiq bo'lsa, yoki harorat juda past bo'lsa quyon bolalari uyadan ertaroq chiqishlari ham mumkin [2. 223 b].



Tarkibida oqsil miqdori qo'y, mol, cho'chqa go'shtlariga qaraganda yuqori, vitamin va minerallari ko'p. Quyon go'shti tarkibidagi vitaminlar va temir, fosfor, kobalt, marganets, ftor, kaliy moddalarini boshqa hech qaysi go'sht bilan tenglashtirib bo'lmaydi [4. 7-9 b].

Quyonlarning bo'g'ozlik davri qisqa bo'lganligi jihatidan boshqa turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlaridan keskin farq qiladi. Ular embrion davrida va tug'ilgandan keingi dastlabki 3-3,5 oy ichida jadal o'sadi 4-5 oylik yoshida voyaga yetadi va quyon bolalari beradi. Yil davomida intensiv bola olishda foydalaninsa o'rtacha 72-80 kg go'sht ishlab chiqarish mumkin [3. 10-15 b].

Quyonlarning vazn o'sishi asosiy biologik omillardan biri hisoblanib, bu ko'rsatkichni o'rganish zootexniya fanida muhim va asosiy hisoblanadi.

Zootexniya amaliyotida qishloq xo'jalik hayvonlarini o'sish va rivojlanish hamda go'sht uchun boqishda ularning tirik vazni asosiy eng muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Tajribadagi chetdan olib kelingan tez yetiluvchan Kaliforniya zotli quyonlarni bilan mahalliy quyon zotini chatishtirishdan olingan duragay quyonlarning o'sish dinamikasi 1-jadvalda keltirilgan.

Tajriba uchun yilda Kaliforniya zotiga mansub olib kelingan 44 bosh urg'ochi quyonlarning o'rtacha yoshi 128,5 kunni tashkil qilib, o'rtacha vazni 3021,6 g, tana o'lchamlar o'rtacha 48,43, ko'krak aylanasi o'rtacha 33,3 sm, tana o'lchamlari o'rtacha 48,43sm, tana indeksi o'rtacha 68,8%-ni tashkil qildi.

1-jadval

Ona quyonlarning davrlar bo'yicha o'sish dinamikasi (g)

Yoshi, kun	Tirik vazni, g	Cv, %	Eksterer o'lchamlari, sm($X \pm S_x$)				
			Tana uzunligi	Cv, %	Ko'krak aylanasi	Cv, %	Go'shtdorlik indeksi, %
120	3021,6 $\pm$ 15,7	3,3	48,4 $\pm$ 0,54	6,4	33,3 $\pm$ 0,24	2,9	68,8
150	3531,2 $\pm$ 13,3	4,7	48,8 $\pm$ 0,39	5,2	33,5 $\pm$ 0,11	3,3	68,6
180	3933,6 $\pm$ 11,8	4,1	49,2 $\pm$ 0,47	4,9	33,7 $\pm$ 0,17	3,5	68,5
210	4173,3 $\pm$ 17,1	5,2	49,7 $\pm$ 0,59	5,1	34,1 $\pm$ 0,29	4,1	68,6

($R > 0,99$) ishonchlik darajasi

Kaliforniya zotiga mansub quyonlar 150 kunlik yoshiga kelib 120 kunlik yoshiga nisbatan o'rtacha 3531,2 $\pm$ 13,3 g 509,6 g yoki 14,43% ($R > 0,99$), 180 kunlik yoshiga kelib o'rtacha 3933,6 $\pm$ 11,8 g yoki 150 kunlik yoshidagi vazniga nisbatan 402,4 g ($R > 0,99$), 210 kunlik yoshiga kelib esa tajribadagi quyonlarning o'rtacha vazni 4173,3 $\pm$ 17,1 g-ni tashkil qilib 180 kunlik yoshiga nisbatan 239,7 g-ga ortiqcha bo'ldi ($R > 0,99$).

Quyonchilikda naslchilik ishlarini olib borishda quyonlarni nasli va mahsuldorlik sifati bo'yicha baholashda eksterer va konstitutsiya ko'rsatkichlari bo'yicha baholash muhim va dolzarb hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi hayvonlarining ekstereri quyonlarni konstitutsiyasini baholashda asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ekstererni ilmiy asosda o'rganish asoslarini fransuz olimi Klod Burje tomonidan asos solinib zootexniya faniga eksterer terminini kiritgan.

Qishloq xo'jaligi hayvonlarini tana tuzilishini o'rganishda ko'z orqali, ushlab ko'rish yoki paypaslash, maxsus asboblarda o'lchash va fotografiya usullaridan foydalaniladi.

Ekstererni o'rganishning eng aniq usuli hayvonning tana o'lchamlarini olishdir, shuning uchun biz tajribadagi hayvonlarning tana o'lchamlarini olib, jinslararo qiyoslash yo'li bilan ularning ekstererini o'rgandik.

Tajribadagi quyonlarni yoshiga nisbatan o'rganilganda ularning 120 kunlik yoshida tana uzunligi o'rtacha $48,4 \pm 0,54$ sm, ko'krak aylanasi $33,3 \pm 0,24$ sm bo'lgan bo'lsa, 150 kunlik yoshiga kelib bu kursatkichlar quyidagicha 0,82;0,59%-ga, 180 kunlik yoshida esa 120 kunlik yoshiga nisbatan 1,62;1,18%-ga 210 kunlik yoshiga kelib esa 120 kunlik yoshiga nisbatan 2,61,2,34%-ga ortgan. ($R > 0,99$) Tajribadan olingan ma'lumotlar [1] 2023-yil ma'lumotlariga mos keladi.

Xulosa

1. 210 kunlik yoshiga kelib tajribadagi quyonlarning o'rtacha vazni $4173,3 \pm 17,1$ g-ni tashkil qilib 180 kunlik yoshiga nisbatan 239,7 g-ga ortiqcha buldi ($R > 0,99$).

2. Tajribadagi duragay quyonlar 150 kunlik yoshiga kelib bu kursatkichlar quyidagicha 0,82;0,59%-ga, 180 kunlik yoshida esa 120 kunlik yoshiga nisbatan 1,62;1,18%-ga 210 kunlik yoshiga kelib esa 120 kunlik yoshiga nisbatan 2,61,2,34%-ga ortgan. ($R > 0,99$)

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. K.I.Xidirov, F.S.Allashev, Tajribadagi mahalliy populyasiyadagi quyonlarning tana ekstereri ko'rsatkichlari Chorvachilik va Nasilchilik ishi jurnali, №1, mart Toshkent 2023 y

2. Plotnikov, V.G., Firsova N.M. Quyonlarni ko'paytirish, oziqlantirish va saqlash. – M.: Agopromizdat, 1989. – 223 b.

3. R.I.Ruziev, D.Q.Yuldoshov, K.I.Xidirov, F.B.bahriddinov, F.S.Allashev QUYONLARNI SAQLASH, OZIQLANTIRISH VA NASLCHILIK ISHLARI MONOGRAFIYA "FAN ZIYONET" NASHRIYOTI Toshkent 2023 10-15.b.

4. Xolmatov A.X Quyonchilik 100 kitob to'plami 81-kitob 2021y 7-9 b.